



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI







SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2024-yilning yanvar-noyabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*

Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 39 403,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,6 % ni tashkil etdi.






■ mlrd so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (24 516,3 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (17 718,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-noyabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 38 135,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,8 % ni, tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda jami Sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (36,7 %), Jomboy tumani (8,6%), Urgut tumani (9,1%), hamda Samarqand (6,4 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (117,1%), Kattaqo'rg'on tumanida (115,4%) hamda Oqdaryo tumanida (110,4%) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2024-yil yanvar-noyabr oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatda 8,6 % ga, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 7,0 % ga, o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 30,4 % ga hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 17,0 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 240,0 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,9 % (14,5 %), o'rta-quyi texnologiyali 20,3 % (20,1 %) va quyi texnologiyali 59,8 % (61,1 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 218,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,2 % (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 85,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 20,1 % (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 37,9 % (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2024-yil yanvar-noyabr	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	46,8	41,3	-5,5
Paxta tolasi, ming t.	47,3	40,0	- 7,3
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	22,6	26,9	4,3
Shag'al – ming t.	545,5	436,5	- 109,0
Aroq – ming litr 100 % spirt	31,4	197,2	165,8
Tamaki – mln dona	9 538,1	9 901,0	362,9
Piva – ming litr	23 013,0	18 534,0	- 4 479,0

2024-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda tozalangan paxta yog'i mahsulotlari 22,6 ming tonna (2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 19,0 % ga ko'p) hamda 436,5 ming tonna shag'al (20,0 % kam) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2 968 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,6 % ga kamaygan.



2024-yil

2 968 dona

2024-yil

98,4 %

2023-yil

3 015 dona

2023-yil

81,8 %

2022-yil


3 686 dona

2022-yil

91,1 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-noyabr oylarida 737 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga kamaygan.



2024-yil

737 dona

2024-yil

95,0 %

2023-yil

776 dona

2023-yil

69,0 %

2022-yil


1 125 dona

2022-yil

132,8 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 106,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,2 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 85,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 619,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 93,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa, 218,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 631,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 27,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 112,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,7 %, fizik hajm indeksi esa, 104,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 11 309,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 158,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 93,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 459,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 17,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6 394,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 91,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 111,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 110,8 mlrd so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 140,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 143,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 508,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 190,2 % ni, tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 124,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 535,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 123,6 % ni tashkil etgan..

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 111,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi 1 012,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 120,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 140,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 177,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 122,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 108,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 264,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 77,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,2 %, fizik hajm indeksi 92,8 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 3 246,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 755,0 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2024-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	194 807,8	361 776,9	166 969,1
Issiqlik energiyasi, mln gkal	4 433,2	6 328,6	1 895,4


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 273,4 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2024-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	47 225,4	62 929,8	15 704,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	105 757,9	134 831,9	29 074,0
Plastmassa chiqindilari, tonna	2 524,7	2 967,5	442,8


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 589 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 139 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,4 %) Samarqand shahriga, 790 tasi (14,1 %) Urgut tumaniga, 607 tasi (10,9 %) Samarqand tumaniga, 419 tasi (7,5 %) Pastdarg'om tumaniga va 303 tasi (5,4 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

979 ta

2024-yil yanvar-noyabr

1 168 ta

2023-yil yanvar-noyabr

1 561 ta

2022-yil yanvar-noyabr



Jami faoliyat yuritayotgan (1-oktabr holatiga)

5 589 ta


2024-yil

6 321 ta

2023-yil

8 817 ta


2022-yil





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 19 882,0 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 50,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-noyabr
mlrd soʻm



yanvar-noyabr
ulushi, % da



■ mlrd soʻm ■ ulushi, %